

бул квоталари камайиши натижасида мазкур манба ҳисобидан олий таълим муассасасига келиб тушадиган маблағлар камайди. Бу эса, биринчидан, мазкур таълим муассасаларида иш-лаётган профессор-ўқитувчиларнинг сонини қисқаришига олиб келса, иккинчидан, турли хил байрамларда ишчи-ходимлар ва профессор-ходимларнинг рағбатлантирилишининг камайиб кетишига олиб келади. Бу эса ўқитувчи ва ходимларнинг ишсиз қолишига, айримларининг ставкалари камайишига, охирокибатда уларнинг кўшимча иш қидиришига ёки бўлмаса, ўз лавозимидан шахсий манфаатларни кўзлаб фойдаланишига тўғри келмоқда. Бу эса бевосита таълим сифатига ўзининг салбий таъсирини кўрсатмоқда.

Бундай ҳолатларнинг олдини олиш учун, таълим тизими ривожланган хорижий мамлакатлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Жумладан, Европанинг кўпчилиги мамлакатларида олий таълим муассасаларига кириш осон саналиб, талабалар таълим муассасасини битказишлари учун аниқ талаб кўйилган, яъни талабаларни баҳолаш ва имтиҳонлар топшириш аниқ белгиланган талаблар асосида амалга оширилади. Гуруҳдаги бошқа талабаларга нисбатан нисбий баҳолаш амалга оширилмайди. Шу билан ҳам ушбу таълим муассасаларига кирган талабаларнинг деярли 20–30 фоизи таълим муассасасини 1–2 йил кечикиб битказишади. Бу эса таълим муассасасига битта талабадан тушадиган маблағнинг кўпроқ тўланишига олиб келади.

Ўзбекистон таълим тизимига ҳам мазкур тизим жорий қилинса, таълим муассасаларига кўшимча маблағларни келиб тушишига ҳамда таълим сифатига ижобий таъсир кўрсатади, деган фикрдамыз.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2015 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги ПҚ-2270-сонли қарори, 4 декабрь 2014 йил.
2. Муқаммад Али Саидов. Таълим тизимида тажриба ва самарадорлик (<http://huquqburch.uz/uz/view/562>).

Sharifa Jumaniyazova (iqtisodiyot mutaxassisligi 2-kurs magistranti)

SANOAT TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDAGI ROLI VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin o'tgan qariyb 25 yil mobaynida mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini modernizatsiyalash, o'tkazilayotgan demokratik bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy sohalarini yanada erkinlashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini chuqur tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini va mintaqalarni barqaror hamda mutanosib rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish va shu asosda jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda xalq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoat mavqeyi jihatidan alohida o'rin egallaydi.

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'moli tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi: mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklari qazib olinadi, mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi, keng iste'mol mollari tayyorlanadi va h.k.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Birinchi navbatda, yengil, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida, paxta tolasi, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarishni, qurilish

materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, sifatli va barqaror talabga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar tashkil etishga alohida e'tibor qaratish darkor.¹

Jahon bozorlarida innovatsion mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlashda nafaqat ishlab chiqaruvchi firmalarning sa'y-harakatlari, balki davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, u tomondan yaratilayotgan ishbilarmonlik muhiti katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda olib borilayotgan samarali mintaqaviy siyosat butun dunyoda tan olinmoqda va ijobiy natija sifatida o'rganilmoqda. Hozirgi kunda Respublikaning har bir hududi uchun rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari aniqlanib, tarmoqlar bilan uzviy bog'langan holda kompleks dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Xususan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yil 22-noyabrdagi "2013–2015 yillarda Xorazm viloyati sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risidagi" qarori qabul qilingan edi. O'tgan davrda ushbu dastur doirasida 308 mln. AQSH dollaridan ortiq investitsiya hisobidan 432 ta sanoat korxonasi tashkil etildi. Ayniqsa, viloyatda "Damas", "Orlando" va "Labo" avtomobillari, gidravlik ekskavatorlar, buldozerlar, maishiy va sanoatbop sovitkichlar kabi yuqori texnologiyalar asosida mahsulot chiqaradigan korxonalar barpo etildi. Bunday katta o'zgarishlarni yengil sanoat sohasida ham ko'rish mumkin. Xususan, Bog'ot, Hazorasp, Shovot, Yangibozor tumanlarida yangi zamonaviy to'qimachilik majmualari ish boshladi. Bugungi kunda viloyatdagi 34 ta qo'shma korxonaning 15 tasi oxirgi 5 yilda ilgari bunday korxonalar mavjud bo'lmagan tumanlarda tashkil etilgani e'tiborlidir.²

Ma'lumki, viloyatning sanoat sektori, asosan, qishloq xo'jalik xomashyosini birlamchi ishlab chiqarishga, xususan, paxta tozalash sohasiga ixtisoslashgan.

Yengil sanoat viloyatda an'anaviy sohalardan biri bo'lib, hududning ishlab chiqarish faoliyatida muhim o'rin tutadi. Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Hazorasp, Xonqa, Shovot va Yangiariq tumanlari asosiy yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi.

Mintaqada muhim qishloq xo'jalik xomashyosi – paxta yetishtirish uchun qulay shart-sharoitlar mavjud. Shu o'rinda aytish joizki, paxta tolasi viloyatda eksport qilinadigan asosiy mahsulot hisoblanadi. Ushbu boy xomashyoni qayta ishlash sanoatini kengaytirishga doir loyihalarni amalga oshirish lozim. Chunki bugungi kunda viloyatda paxta tolasining juda kam qismi qayta ishlanmoqda.

Pilla yetishtirish va jun ishlab chiqarish borasida muayyan qulayliklarga ega bo'lgan ushbu viloyatda ipak va jundan tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Xorazm viloyatida 2015-yilda sanoat mahsuloti hajmi 2351684.1 mln. so'mni tashkil etdi. 2015-yilda 1504242.0 mln. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, jumladan, 501216.7 mln. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari va 976747.0 mln. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarildi.³

O'zbekiston hududlari bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foizda)⁴

	2014	2015
O'zbekiston Respublikasi	109.4	109.7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	114.7	118.8
<i>viloyatlar:</i>		

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent, "O'zbekiston", 2010, 60-bet.

² www.xorazm.uz

³ Xorazm viloyatining statistika axborotnomasi.

⁴ O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami. Toshkent, 2016.

Andijon	100.3	92.4
Buxoro	116.1	113.4
Jizzax	112.9	113.9
Qashqadaryo	106.7	110.1
Navoiy	103.5	113.7
Namangan	114.6	119.4
Samarqand	118.3	108.2
Surxondaryo	115.8	116.0
Sirdaryo	111.2	108.7
Toshkent	108.2	122.6
Farg'ona	106.5	113.1
Xorazm	208.3	124.8
Toshkent shahri	114.2	114.6

Sanoat ishlab chiqarishi jamiyatning obyektiv iqtisodiy qonunlari hamda respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar asosida rivojlanmoqda.

Xususan, Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyot hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish va liberallashtirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishning aniq yo'llarini belgilab berdi.

Ushbu Harakatlar strategiyasining uchunchi bo'limida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish haqida so'z yuritiladi. Xususan, ushbu bo'limda milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, ishlab chiqarish mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rmini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan zona-larning samaradorligini oshirish kabi bir qator masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, hozirgi vaqtda xalqaro raqobatbardosh mahsulotning ko'p qismi nisbatan zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanuvchi, yangi boshqaruv va tashkiliy yechimlarni joriy qiluvchi tashkilotlarda, shu jumladan sanoat korxonalarida ishlab chiqariladi. Chunki hozirgi davrning eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida chuqur keskin o'zgarishlar hosil qilyotgan fan va texnikaning shiddatli rivojidir. Sanoat sohasida fan-texnika taraqqiyotining an'anaviy yo'nalishlarini xususan, ishlab chiqarishni elektrlashtirish, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, kimyolashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etishni yanada rivojlantirish lozim. Sanoat tarmog'ida faoliyat

ko'rsatayotgan yirik korxonalaridagi ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirgan ishlab chiqarish vositalarini yangilashni jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yanada modernizatsiyalash hamda korxonalarda jahon andozasi talab darajasida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan zamonaviy texnologiyalarni jadal joriy etish zarur. Ishlab chiqarishni samarali diversifikatsiyalashuvi va an'anaviy tarmoqlar eksportini (neft-gaz sanoati, rangli metallurgiya, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, shu jumladan paxtani) ta'minlovchi xomashyo resurslarini qayta ishlashni chuqurlashtirish yo'nalishlariga innovatsiyani qo'llash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.E.Ishmuhammedov, M.R.Rahimova, L.A.Ishmuhammedova. Mintaqaviy iqtisodiyot. Toshkent, 2007.
2. Abdurahim Ortiqov. Sanoat iqtisodiyoti. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi hashriyoti, Toshkent, 2004.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi. "Xalq so'zi", 8-fevral 2017-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi hududlarining yillik statistik to'plami. T., 2016.
5. www.xorazm.uz
6. www.stat.uz

*Бахтиёр Эгамов (УрДУ, и.ф.н., доцент),
Оманбой Саидов (УрДУ 2-босқич магистранти)*

ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Хар бир шахс ёки жамият ўз олдига қўйган мақсадларга эришиш учун стратегик ёки оператив режа тузади. Бу режани тузишда, албатта, бир қанча кўрсаткичларни таҳлил қилиши, ўрганиши зарур ҳисобланади. Бу усулларнинг асосийларидан бири шу фаолият билан шуғулланган, ё бўлмаса, шуғулланаётган шахс ёки жамиятнинг фаолиятини, яъни ютуқ ва камчиликларини таҳлил қилиш ҳисобланади. Бизнинг мамлакатимиз ҳам ўз олдига қўйган эзгу мақсадларга эришиш учун ўз олдига бир қанча стратегик режаларни қўйган. Уларнинг асосийларидан бири давлатимизнинг ривожланишида катта аҳамият касб этувчи замонавий билимларга эга, соф фикрга эга бўлган ва малакали мутахассис кадрларни тарбиялашдир.

Бунинг учун эса замон талабларига мос таълим муассасаларини яратиш, у ерда таълим олувчиларнинг билим олишлари ва таълим берувчиларнинг эса ўз билимларини янада оширишлари ҳамда илмий изланишларни олиб боришлари учун қулай шарт-шароитларни таъминлаш зарур бўлади. Бу эса катта маблағни талаб қилади. Шу боисдан таълим тизимини самарали молиялаштириш манбаларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш ҳозирги кундаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Умуман олганда, жаҳоннинг ривожланган мамлакатларида таълимни молиялаштиришнинг ҳажми ва усуллари бир қанча омилларга боғлиқдир:

- мамлакат иқтисодиётининг ривожланганлик даражаси;
- таълим тизими олдига қўйилган вазифалар;
- миллий анъаналар;
- таълим муассасаларини тузиш, ташкил этиш ва бошқаришнинг ўзига хослиги.

Таълимнинг кўплаб миллий моделлари бор. Бироқ улар орасидан тузилиши жиҳатидан куйидаги асосий мезонларга қараб бир-биридан фарқ қиладиган асосийларини ажратиш кўрсатиш мумкин:

- аниқ тарихий даврда ушбу мамлакат учун таълим тизимини ривожлантиришдан асосий мақсад ва қутиладиган натижа;